



UDK: 378.015.3:159.947.5

Naziraxon SIDDIQOVA,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
E-mail: siddiqovan@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti professori T.Egamberdiyeva taqrizi ostida

PEDAGOGIK TASHXISLASH METODLARI YORDAMIDA TALABALARNING MOTIVATSION RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASINI ANIQLASH OMILLARI

Аннотация

Maqolada talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlash jarayonida pedagogik tashxislash metodlarining nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda motivatsion rivojlanish trayektoriyasi talabanning o'qishga bo'lgan munosabati, ichki va tashqi rag'batlantiruvchi omillar, maqsadga yo'naltirilganlik hamda reflektiv faoliyat bilan uzviy bog'liq dinamik jarayon sifatida talqin etilgan. Pedagogik tashxislash metodlari talabanning mavjud motivatsion holatini aniqlash, motivatsiyadagi o'zgarishlarni kuzatish va rivojlanish ehtiyojlarini belgilash vositasi sifatida asoslangan. Maqolada tashxislash jarayoni motivatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ongli ravishda yo'naltirishga xizmat qiluvchi ilmiy mexanizm sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsion rivojlanish trayektoriyasi, pedagogik tashxislash metodlari, ta'lim motivatsiyasi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, reflektiv faoliyat, talaba motivatsiyasi, rivojlanish dinamikasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, motivatsion holat, pedagogik baholash, individual rivojlanish.

ОСНОВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТРАЕКТОРИИ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ ПО РЕЗУЛЬТАТАМ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ

Аннотация

В статье освещается теоретическое и практическое значение методов педагогической диагностики в процессе определения траектории мотивационного развития студентов. В исследовании траектория мотивационного развития интерпретируется как динамический процесс, неразрывно связанный с отношением студента к обучению, внутренними и внешними стимулирующими факторами, целенаправленностью и рефлективной деятельностью. Методы педагогической диагностики обоснованы как средство выявления текущего мотивационного состояния студента, отслеживания изменений в мотивации и определения потребностей в развитии. В статье процесс диагностики рассматривается как научный механизм, направленный на поддержку и осознанное регулирование мотивационного развития.

Ключевые слова: Траектория мотивационного развития, методы педагогической диагностики, учебная мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, рефлексивная деятельность, мотивация студента, динамика развития, личностно-ориентированное обучение, мотивационное состояние, педагогическое оценивание, индивидуальное развитие.

FUNDAMENTALS OF DETERMINING THE TRAJECTORY OF PERSONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS BASED ON THE RESULTS OF PEDAGOGICAL DIAGNOSIS

Annotation

The article highlights the theoretical and practical significance of pedagogical diagnostic methods in the process of identifying students' motivational development trajectories. The study interprets the motivational development trajectory as a dynamic process closely connected with a student's attitude toward learning, internal and external motivating factors, goal orientation, and reflective activity. Pedagogical diagnostic methods are substantiated as tools for determining students' current motivational states, monitoring changes in motivation, and identifying developmental needs. The article considers the diagnostic process as a scientific mechanism that serves to support and consciously guide motivational development.

Keywords: Motivational development trajectory, pedagogical diagnostic methods, learning motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, reflective activity, student motivation, development dynamics, learner-centered education, motivational state, pedagogical assessment, individual development.

Kirish. Bugungi kunda bilimlarni o'zlashtirish jarayoni talabanning o'qishga bo'lgan ichki munosabati, maqsadga yo'naltirilganligi va o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyat hissi bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli ta'lim jarayonida motivatsion holatni yuzaki kuzatish emas, balki uni tizimli ravishda aniqlash, tahlil qilish va rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Talabanning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlash talabanning motivatsiyadagi o'zgarish yo'nalishlarini, barqarorlik yoki pasayish holatlarini ham anglash imkonini beradi. Pedagogik tashxislash metodlari mazkur muammoni hal etishda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyan bo'ladi.

Pedagogik tashxislash motivatsiyani rivojlanib boruvchi jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlash pedagogik qarorlar qabul qilish sifatini oshiradi, ta'lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi va talabanning o'z rivojlanishiga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi. Pedagogik tashxislash metodlariga tayangan holda motivatsiyani rivojlantirish ta'lim jarayonida barqaror o'quv faolligini ta'minlash, akademik muvaffaqiyatlarni qo'llab-quvvatlash va talabanning shaxsiy hamda kasbiy o'sishini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda pedagogik tashxislash

metodlarini ilmiy asosda o'rganish va takomillashtirish zamonaviy oliy ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Talabalarning motivatsion rivojlanishi masalasi so'nggi yillarda pedagogika va ta'lim psixologiyasining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Motivatsiya o'quv faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida talabani ta'lim jarayonidagi faolligi, barqarorligi va natijadorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Motivatsiya tushunchasi nafaqat boshlang'ich rag'batlantiruvchi holat, balki vaqt davomida o'zgarib boruvchi, rivojlanadigan jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur yondashuv motivatsion rivojlanish trayektoriyasi tushunchasining shakllanishiga zamin yaratdi. "Talabani o'quv motivatsiyasi uning shaxsiy faolligi va rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq bo'lib, pedagogik tashxislash ushbu jarayonni aniqlash va boshqarishga xizmat qiladi"[1].

Motivatsion rivojlanish trayektoriyasi talabani o'qishga bo'lgan munosabati, maqsadga yo'naltirilganligi, ichki va tashqi motivlar nisbatining o'zgarishi hamda o'z faoliyatiga reflektiv munosabati bilan bog'liq holda izohlanadi. Motivatsiya bir xil darajada saqlanib qolmaydi, balki ta'lim sharoiti, pedagogik ta'sirlar va shaxsiy tajriba ta'sirida turli yo'nalishlarda rivojlanadi.

Pedagogik tashxislash motivatsiyani aniqlashda faqat baholash vositasi emas, balki rivojlanishni tushunish va yo'naltirishga xizmat qiluvchi ilmiy metod sifatida talqin etiladi. "Motivatsiyani rivojlantirishda tashxislash natijalariga tayangan holda pedagogik qarorlar qabul qilish ta'lim samaradorligini oshiradi"[2]. Motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda pedagogik tashxislash metodlari talabani o'quv faoliyatidagi faolligi, mustaqil qaror qabul qilishga tayyorligi, qiyinchiliklarga munosabati va reflektiv fikrlash darajasini kompleks tarzda o'rganishga xizmat qiladi.

Pedagogik tashxislash metodlarining muhim jihati ularning uzluksiz va bosqichma-bosqich qo'llanilishidir. "Pedagogik tashxislash o'quv jarayonida talabani motivatsion ehtiyojlarini aniqlash va individual rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim omil hisoblanadi"[3]. Talabani reflektiv mulohazalari, qarorlaridagi izchillik, o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatidagi o'zgarishlar motivatsion rivojlanish trayektoriyasining asosiy indikatorlari sifatida tahlil qilinadi. Bu esa pedagogik tashxislash metodlarini motivatsiyani boshqarish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali ilmiy mexanizmga aylantiradi. Talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda pedagogik tashxislash metodlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Motivatsiyani yuzaki baholashdan voz kechib, uni rivojlanib boruvchi jarayon sifatida o'rganish, individual farqlarni aniqlash va ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi.

Natijalar. Talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyalari ichki motivatsiyaning ustunligi, tashqi rag'batlantirishga bog'liqlik darajasi hamda reflektiv munosabatlarning shakllanganlik darajasiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar o'quv faoliyatida mustaqillik, tashabbuskorlik va maqsadga yo'naltirilganlikni ko'proq namoyon etadi. Talabalar reflektiv topshiriqlarda o'z o'quv faoliyatini tahlil qilishga moyil bo'lib, motivatsion rivojlanish trayektoriyasini ongli ravishda shakllantirishga intiladi. Tashqi motivatsiya ustun bo'lgan talabalar ko'proq baho, nazorat va tashqi rag'batlantirishga tayanib, motivatsion barqarorlikni saqlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Pedagogik tashxislash jarayoni talabalarning motivatsion o'zini anglash darajasiga ham ijobiy ta'sir

ko'rsatganini namoyon etdi. Pedagogik tashxislash metodlari motivatsion rivojlanish trayektoriyasidagi muhim burilish nuqtalarini aniqlash imkonini berdi. Pedagogik vaziyatlar, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizliklar motivatsion holatda sezilarli o'zgarishlarga olib kelgani kuzatildi. Pedagogik tashxislash metodlarining motivatsion rivojlanish trayektoriyasini boshqarish imkoniyatini kengaytirganini ko'rsatdi.

Pedagogik tashxislash metodlari talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, motivatsiyani barqaror rivojlantirish va talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan ongli munosabatini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Pedagogik tashxislash metodlari talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda motivatsion jarayonni chuqur tushunish va ongli ravishda yo'naltirish imkonini beruvchi muhim ilmiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik tashxislash metodlariga asoslangan yondashuv motivatsiyani rivojlanish jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Talabani o'qishga bo'lgan umumiy munosabati yoki rag'batlantiruvchi omillarga javobi sifatida talqin qilinadi. "O'quv motivatsiyasi talabani ichki ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog'liq bo'lib, uni aniqlash uchun diagnostik yondashuv zarur"[4]. Motivatsiyaning ichki tuzilmasini va uning rivojlanish mantiqini ochib bera olmaydi. Pedagogik tashxislash metodlari yordamida talabani ichki motivatsiyasi, maqsadga yo'naltirilganligi, qiyinchiliklarga munosabati va reflektiv faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash mumkinligini ko'rsatdi. Bu esa motivatsion rivojlanish trayektoriyasini yanada aniqroq va chuqurroq talqin qilishga imkon yaratadi.

Bir martalik tashxislash talabani motivatsion holatini ma'lum bir vaqt kesimida aks ettirishi mumkin, biroq motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlash uchun vaqt davomida takroriy tashxislash zarur. Tashxislash jarayonida talaba o'z motivatsion holatini tahlil qilishga, o'z maqsadlari va ta'limiy tanlovlarini qayta ko'rib chiqishga undaladi. Talabani o'z-o'zini boshqarishga asoslangan motivatsiyasi shakllanadi, bu esa motivatsion rivojlanish trayektoriyasining barqarorligini ta'minlaydi. "Talabani o'zini boshqarishga asoslangan motivatsiyasi refleksiya va o'zini baholash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir"[5]. Pedagogik tashxislash natijalarining talqini masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. Agar tashxislash natijalari faqat raqamli ko'rsatkichlar yoki umumiy xulosalar bilan cheklansa, motivatsion rivojlanish trayektoriyasining mazmuniy tomoni to'liq ochilmaydi. Pedagogik tashxislash jarayonining samaradorligi nafaqat tashxislash vositalarining to'g'ri tanlanishi, balki olingan natijalarni chuqur va mazmunli talqin qilish bilan ham bevosita bog'liqdir. Motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda miqdoriy ko'rsatkichlar muhim bo'lsa-da, ular talabani ichki kechinmalari, o'qishga bo'lgan subyektiv munosabati va reflektiv faoliyatini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli pedagogik tashxislash natijalari sifat tahlili, kuzatuv, suhbat va reflektiv yozma topshiriqlar bilan uyg'un holda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Takroriy tashxislash orqali talabani motivatsion holatidagi dinamik o'zgarishlar aniqlanadi, bu esa pedagogga motivatsiyaning rivojlanish bosqichlarini anglash imkonini beradi. Ayniqsa, muhim o'quv vaziyatlari — muvaffaqiyat, qiyinchilik yoki tanlov nuqtalari — motivatsion rivojlanishda burilish yasovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabani qaysi sharoitlarda ichki motivatsiyasi kuchayishi yoki pasayishini aniqlash mumkin bo'ladi.

Pedagogik tashxislash talabning reflektiv madaniyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tashxislash jarayoniga ongli ravishda jalb etilgan talaba o'z o'quv faoliyatini baholash, maqsadlarini aniqlashtirish va kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga o'rganadi. Bu esa talabning ta'lim jarayonida passiv ishtirokchidan faol va mas'uliyatli subyektga aylanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik tashxislash motivatsiyani nazorat qilish vositasi emas, balki uni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-amaliy mexanizm sifatida qaralishi lozim. Tashxislash natijalari asosida ishlab chiqilgan individual pedagogik strategiyalar talabning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini barqaror va izchil shakllantirish imkonini beradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda pedagogik tashxislash metodlarining muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini asosli ravishda tasdiqlaydi. Motivatsion rivojlanish trayektoriyasi talabning o'qishga bo'lgan munosabati, ichki va

tashqi motivlar nisbatining o'zgarishi, maqsadga yo'naltirilganligi hamda reflektiv faoliyati bilan uzviy bog'liq murakkab va dinamik jarayon ekanligi aniqlandi. Motivatsiyaning vaqt davomida o'zgarib borishi, barqarorlashuvi yoki pasayish holatlari faqat uzluksiz va tizimli tashxislash orqali aniqlanishi mumkin. Bu esa motivatsiyani rivojlanib boruvchi jarayon sifatida talqin qilish zarurligini asoslaydi. Talabning motivatsion holati va rivojlanish yo'nalishlariga mos ravishda tashkil etiladi. Bu holat talabning o'quv faoliyatidagi faolligini oshirish, o'qishga bo'lgan ichki qiziqishini mustahkamlash va barqaror motivatsiyani shakllantirish imkonini beradi.

Talabalarning motivatsion rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda pedagogik tashxislash va baholash zamonaviy oliy ta'lim tizimi uchun muhim metodologik asos ekanini ko'rsatadi. "Baholash va diagnostika o'quvchining rivojlanish motivatsiyasini tushunish va uni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgandagina samarali bo'ladi"[6]. Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilganlikni kuchaytirish, motivatsiyani ongli ravishda boshqarish va individual rivojlanishni tizimli qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Xodjayev, B. X. (2021). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi. Toshkent: O'qituvchi.
2. Qodirova, N. A. (2022). Ta'limda motivatsiya va pedagogik baholash masalalari. Ta'lim va innovatsiya, 2, 49–55.
3. Ismoilova, D. R. (2023). Oliy ta'limda ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish yondashuvlari. Pedagogik ta'lim, 1, 41–47.
4. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2017). Self-determination theory: Basic psychological needs in motivation, development, and wellness. New York, NY: Guilford Press.
5. Zimmerman, B. J. (2013). Self-regulated learning and academic achievement. New York, NY: Routledge.
6. Black, P., & Wiliam, D. (2018). Assessment and classroom learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 25(1), 1–23. <https://doi.org/10.1080/0969594X.2017.1401536>